

QISHLOQ XO'JALIGI DIPLOMATIYASI: "MADE IN UZBEKISTAN" EKSPORT BRENDI VA OZIQ OVQAT XAVFSIZLIGI

Shodmonova Maqsuda Nurilloevna

Osiyo xalqaro universiteti magistri

Annotatsiya: maqola O'zbekistonning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishdagi diplomatiyasi, "Made in Uzbekistan" brendining xalqaro bozorlardagi o'rni va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan. Unda mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, sifat va xavfsizlik me'yorlariga rioya qilish orqali xalqaro ishonchni mustahkamlash hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan raqobatbardoshlikni ta'minlash yo'llari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, diplomatiya, eksport, oziq-ovqat xavfsizligi, xalqaro bozor, sifat, brend, eksport salohiyati.

KIRISH

O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida qishloq xo'jaligi katta o'rin tutadi. Mamlakatda ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport qobiliyati oshib borayotgan bir paytda, eksport brendini shakllantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash dolzarb vazifa hisoblanadi. "Made in Uzbekistan" brendi ostida yaratilgan mahsulotlar xalqaro bozorlarda raqobatbardosh bo'lishi uchun yuqori sifat va xavfsizlik standartlariga javob berishi kerak. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi diplomatiyasi harakati orqali mamlakat o'zining eksport siyosatini rivojlantirishga intilmoqda.

ASOSIY QISM

Qishloq xo'jaligi diplomatiyasi mamlakat eksport siyosatining samarali yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda global bozor sharoitida barqaror



raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifati va xavfsizligi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston hukumati tomonidan "Made in Uzbekistan" brendi ostida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish strategiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi mamlakatning eksport salohiyatini oshirish va xalqaro bozorlarda o'z o'rnini mustahkamlashdir. Bu jarayonda qishloq xo'jaligi diplomatiyasi muhim vosita bo'lib, u eksportni rag'batlantirish, yangi bozorlarni o'rganish hamda hamkorlik aloqalarini kengaytirishga yo'naltirilgan. Meva-sabzavot klasteri – hududiy jihatdan mahalliyashgan, faoliyati innovatsiyalarga yo'naltirilgan va xo'jalik yurituvchi mustaqil sub'ektlarning o'zaro hamkorligiga asoslangan integrallashgan tuzilma bo'lib, maqsadi – O'zbekiston Res publikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo'ljallangan Strategiyasini amalga oshirishdan iborat. Respublikamizda meva-sabzavot klasterlarini shakllantirish va rivojlanishining hozirgi holatini tahlil qilishda mavzuga oid xorijiy hamda mamlakatimizda chop etilgan ilmiy tadqiqot ishlariga, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotlariga asoslanildi. Klasterlar dastavval G'arbning rivojlangan davlatlarida yuzaga keldi. XX asrning 70-80 yillarida rivojlangan Yevropa mamlakatlarida klaster shakllanishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha mintaqaviy dasturlar paydo bo'ldi. Milliy klasterlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari esa 1990-yillarning ikkinchi yarmida paydo bo'la boshladi. Klaster tashabbuslari va klaster dasturlarining dunyo bo'ylab tez tarqalish davri 2000-yillarning boshlariga to'g'ri keldi. Hozirgi vaqtda Avstraliya, Braziliya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Hindiston, Ispaniya, Italiya, Kanada, Malayziya, Norvegiya, Koreya Respublikasi, Singapur, Sloveniya, AQSh, Finlyandiya, Fransiya, Shvesiya, Yaponiya va boshqa



mamlakatlarda hududiy klasterlarni rivojlantirish davlat siyosati sifatida maqsadli rag'batlantiril moqda. Yevropa Ittifoqining 26 ta mamlakati milliy klasterlarni rivojlantirish dasturlariga ega. Bugungi kunda mintaqaviy rivojlanishni boshqarish bo'yicha xorijiy amaliyotda faol qo'llaniladigan klasterli yondashuv innovatsion siyosatning eng samarali yo'nalishlaridan biri sifatida qabul qilinmoqda. Klasterlarni rivojlantirish bo'yicha rivojlangan mamlakatlar dasturlarining samaradorligi ularni amalga oshirishning uzoq davrini qamrab olishi bilan izohlanib, faoliyat ko'rsatayotgan klasterlar dasturlarini yangilash doimiy ravishda rag'batlantirib boriladi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari klasterlarni rivojlantirishga oid davlat dasturlari bilan faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksporti nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki mamlakatning xalqaro imidjini oshirishga ham xizmat qiladi. "Made in Uzbekistan" brendi ostidagi mahsulotlar sifatining doimiy ravishda yaxshilanishi va xalqaro standartlarga moslashishi eksport hajmini oshirishga imkon beradi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xavfsizligi va ekologik tozaligi global xaridorlar ishonchini qozonishning muhim omillaridan biridir. Bu borada sertifikatlash, sifat nazorati va monitoring tizimlarini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor vazifalariga aylandi [1]. Qishloq xo'jaligi diplomatiyasi orqali O'zbekiston xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga katta ahamiyat beradi. Mamlakat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish uchun yangi bozorlarga chiqish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va texnologik almashinuvni yo'lga qo'yishga intilmoqda. Diplomatik sa'y-harakatlar yordamida eksportdagi to'siqlarni bartaraf etish, soliq va bojxona imtiyozlarini ta'minlash hamda mahsulotlarning erkin harakatini kafolatlash kabi muammolar hal etilmoqda. Bu

esa eksportchilar uchun qulay sharoit yaratib beradi va mahsulotlarning narx raqobatbardoshligini mustahkamlaydi. Jahon tan olgan ekspertlarning fikricha, yirik oziq-ovqat eksportchilari jahon bozorlariga uzluksiz mahsulot yetkazib berishni yo'lga qo'yishi, inqirozga qarshi choralar doirasida har bir davlat aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini qo'llab-quvvatlashi, shuningdek, oziqovqat mahsulotlarini ishlab chiqaradigan fermerlar, qishloq xo'jaligi sohasida mehnat qilayotgan dehqonlar, ishchilarga yordam berishni kechiktirmagan tarzda amalga oshirish bu boradagi eng oqil yo'ldir. Oziq-ovqat xavfsizligi choralarini ko'rish borasida har bir davlat o'zidan kelib chiqib harakat qilyapti. Bular nimalarda o'z aksini topmoqda? Masalan, Vetnam dunyo bozoriga guruch yetkazib berish bo'yicha uchinchi o'rinda turadi. Ushbu mamlakat o'zining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq cheklovlarni o'rnatib, guruch eksport qilishni vaqtinchalik to'xtatdi. Komboja davlati 5 apreldan dukkakli mahsulotlar eksportiga kvota belgiladi. Bug'doy yetishtirish bo'yicha eng yirik eksportyor hisoblangan Rossiya ham aprel-may oyilarida oyiga 7 mln. tonna bug'doyni eksport qilish chegarasini belgilab qo'ydi. Ukraina esa 1 iyulga qadar grechkani tashqi savdoga chiqarishni taqiqladi va ushbu mavsumda 20,2 mln.tonna bug'doyni eksport qilish kvotasini belgiladi. Misr Arab Respublikasi ham uch oy davomida barcha turdagi dukkakli ekinlarni chetga sotishni chekladi. Yevropa Ittifoqi ham sarosima ichida qolib, oziq-ovqat mahsulotlari importi uchun taqdim etilishi lozim bo'lgan sifat sertifikatining asl nusxasini ko'rsatmasdan elektron ko'rinishda kiritish mumkinligiga ruxsat berdi. Shuningdek, birlamchi mahsulotlar uchun "yashil yo'lak"larni tashkil qilish tizimini boshlab yubordi. Germaniya chegaralari ham karantin bois yopildi va qo'shni davlatlardan qishloq xo'jaligiga jalb qilinadigan



mavsumiy ishchi kuchining kirishi to'xtadi. Bu esa, hosilni yig'ib-terib olish, uni qadoqlash va iste'mol bozoriga yetkazish bo'yicha muammolarni keltirib chiqarmoqda. O'z-o'zidan, ikkinchi chorakda oziq-ovqat mahsulotlari narxining ko'tarilishi kuzatilishi mumkin. Italiya va Ispaniyada qattiq karantin hamda og'ir epidemiologik vaziyatning davom etayotganligi tufayli bahorgi dala ishlari batamom to'xtab qoldi. Oltita eng yirik bug'doy ishlab chiqaruvchi davlatlardan biri bo'lgan Fransiyada vaziyat bundan-da keskinligicha qolmoqda. Qo'shni respublikalar ham oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ko'plab iqtisodiy va ma'muriy choralarni qo'llashni boshlab yubordi. Xususan, Qozog'iston hayotiy zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarning barcha turi uchun belgilangan QQSni 8 foizgacha pasaytirdi. Tojikiston shahar aholisi uchun zarur bo'ladigan birlamchi tovarlar, ya'ni 50 tonna shakar, 10 tonna o'simlik yog'i, 70 tonna bug'doy, 10 tonna un, 2 tonna guruch uchun QQS bekor qildi [2]. O'zbekiston esa 2020-yilning 31 dekabriga qadar go'sht, g'alla, shakar, sut, yog', tuxum, makaron va boshqa zaruriy oziq-ovqat mahsulotlar importiga qo'yiladigan boj va aksiz soliqlari bekor qilindi. FAOning hisob-kitoblariga ko'ra, ozuqabop don savdosi hajmi 2019-2020 yil (iyun-iyul) uchun 201,5 mln. tonna atrofida bo'ladi. Bu oldingi davrdagiga nisbatan 3,1 mln. tonna ortiq deganidir. Jahon makkajo'xori bozorida ham prognozlar nekin, hatto uning savdo hajmi rekord darajaga yetishi mumkin. Yana bir strategik mahsulot — guruch savdosi mart oyidagi bashoratlarga nisbatan 700 ming tonna kamayib, 45 mln. tonnani tashkil etgan bo'lsa ham, bu 2019-yilga nisbatan 2,2 foiz ziyoddur. Guruch bozori hajmi bo'yicha prognozni qayta ko'rib chiqish, asosan Yaqin Sharq va Afrika



davlatlariga importning kamayishi, shuningdek, Hindiston va Tailandga eksportning qisqarishi bilan izohlanadi.

Sifat va oziq-ovqat xavfsizligi masalalari “Made in Uzbekistan” eksport brendi strategiyasining markazida turadi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligi texnologiyalari va ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiyalash yuzasidan katta ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa mahsulotlarning mikrobiologik, kimyoviy va fizik xavfsizligini ta‘minlash imkonini beradi. Ayniqsa, paxta, meva-sabzavot, g‘alla va boshqa asosiy eksport turlarida sifatni nazorat qilish uchun milliy va xalqaro sertifikatlar joriy etilmoqda. Shu yo‘l bilan “Made in Uzbekistan” brendi xalqaro bozorda ishonchli va tanlangan mahsulot sifatida e‘tirof etilmoqda.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash uchun nazorat mexanizmlari va qonunlar tizimiga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda. Mamlakatda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va eksport jarayonlarini tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha qator choralar ko‘rilmoqda. Ushbu qonunchilik xalqaro normativ talablar bilan moslashtirilmoqda, bu esa ilg‘or tajribalarni joriy qilishga, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi. Shu tariqa eksportdagi aksil sifatli mahsulotlarning oldi olinadi va oziq-ovqat xavfsizligi kafolatlanadi. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan qishloq xo‘jaligi diplomatiyasi mehnatkashlar va tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Eksport bo‘yicha maqsadli dasturlar, targ‘ibot kampaniyalari hamda xorijiy yarmarkalarda qatnashish orqali mahsulotlarni targ‘ib qilish faoliyati yangi bozorlarni kashf etishga ko‘maklashmoqda. Shuningdek, qishloq xo‘jaligida



innovatsion texnologiyalarni joriy etish va raqamli transformatsiya yordamida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga e'tibor qaratilmoqda. Bularning barchasi eksport salohiyatini oshirish, mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlash va qishloq xo'jaligi sohasida izlanishlarni rag'batlantirishga xizmat qiladi [3].

Xalqaro hamkorlik va integratsiya orqali O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishni yangi darajaga ko'tarishni maqsad qilgan. Mamlakat turli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda sertifikatlash va standartlashtirish jarayonlarini tubdan yaxshilamoqda. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish zanjirlarining samaradorligini oshirish, transport-logistika sohasini rivojlantirish va bojxona rasmiylashtirishni soddalashtirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Bu esa eksport jarayonini tezlashtiradi hamda xaridorlar uchun qo'shimcha qulayliklar yaratadi. Mamlakatda iqtisodiy turizm va agroekoturizm rivojlanishi ham qishloq xo'jaligi mahsulotlari marketingiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mahalliy mahsulotlarni xalqaro iste'molchilarga yaqinlashtirish orqali "Made in Uzbekistan" brendi yanada ommalashmoqda. Oziq-ovqat xavfsizligi choralari, organik mahsulotlar ishlab chiqarish tendensiyalari va ekoturizmning rivojlanishi yangi istiqbollarni ochmoqda. Bu esa nafaqat eksportni ko'paytirishga, balki xalqaro hamkorlikda o'zaro ishonchni oshirishga ham yordam beradi. Shu tarzda O'zbekiston o'zining qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan jahon bozorida munosib o'rin egallamoqda. Xulosa qilib aytganda, qishloq xo'jaligi diplomatiyasi va "Made in Uzbekistan" eksport brendi mamlakatning eksport salohiyatini maksimal darajada oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Oziq-ovqat xavfsizligiga e'tibor qaratish, sifat va standartlarga rioya qilish, hamkorlik aloqalarini kengaytirish va



innovatsiyalarni joriy etish orqali O'zbekiston xalqaro bozorda o'z o'rnini mustahkamlashga intilmoqda. Mazkur jarayonlarda davlat va xususiy sektorning samarali hamkorligi eksportni yanada rivojlantirish uchun asos bo'ladi. Shu bilan birga, uzoq muddatli strategiyalar asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti barqaror va raqobatbardosh bo'lib qoladi.

XULOSA

Maqolada ta'kidlanganidek, O'zbekiston qishloq xo'jaligi eksportini rivojlantirishda eksport diplomatiyasining roli muhim. "Made in Uzbekistan" brendi mahsulotlarni sifatli va xavfsiz qilish orqali xalqaro bozorda nufuz qozonadi. Oziq-ovqat xavfsizligi va sifatni ta'minlash uchun xalqaro standartlarga rioya qilish zarurati ortib bormoqda. Shu yo'nalishda samarali strategiyalar ishlab chiqish va amalga oshirish mamlakat eksport salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Murotovich, M. F., & Nurmuhammadjon o'g'li, N. F. (2023). RAQAMLI IQTISODIYOTDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI VA YECHIMLARI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 50-53.
2. Ganixodjaev, B. F. (2025). QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI YETISHTIRISH VA QAYTA ISHLASHDA KOOPERATSIYA FAOLIYATINING HOZIRGI HOLATI VA IQTISODIY SAMARADORLIK TAHLILI. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 4(37), 156-160.



3. Prezidentining, O. Z. R. (2019). O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030–yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. PF-5853-sonli Farmoni.